

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 501 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'g'urta qilish xarajatlarini hisobi	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики	237
Худайбергенова Адалат Негматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farhod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv molianing ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna	
Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafruz Marufovna	
Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqxonov	
Kichik va o'rta biznes moliyaviy barqarorligining kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati.....	327
Djamalov Xasan Numanjanovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	335
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O'zbekiston turizm sektorida tog' turizmining ulushi.....	343
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	
O'zbekiston respublikasida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish va bunda xorij tajribasi.....	348
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati.....	354
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va asoslash	358
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
O'zbekistonning xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yo'nalishlari.....	362
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Turg'unova Zohida Shavkat qizi, Umida Yuldasheva	
Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish.....	367
Bobomurotova Manzura Panji qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar	372
Berdaliyev Javohir Jahongir o'g'li	
Farg'ona viloyati mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishi holati tahlili	379
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Проблемы охраны окружающей среды и формирования «зеленой экономики»	389
Ёдгорова Мухайё Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
The evolution of passenger transport in uzbekistan and its impact on economic growth.....	392
Naubetova Ziyada Niyet kizi	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlarining hisobi.....	397
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Jahon sug'urta amaliyotining O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'siri	402
Kuvatova Dinara Anvarovna	
Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ta'sir mexanizmlari	406
Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich	
Xaridorlar bilan hisob-kitoblar auditida moliyaviy tahlil usullarini qo'llash xususiyatlari.....	411
Saginbaev Sultanbek Turdibay o'g'li, Sultamuratov Qallibek	
The function and value of commercial banks in fostering capital market growth	416
Isakov Janabay Yakipbaevich	
Финансовое моделирование устойчивых стратегий: роль esg-факторов в оценке стоимости предприятия	422
Юлдошева Гулноза Абдинабиевна	
Raqamli texnologiyalarning korxonalar risk boshqaruvidagi rolini swot tahlili orqali tadqiq etishning ahamiyati	427
Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li	
Germaniyaning deutsche banki va buyuk britaniyaning barclays banki xizmatlar amaliyoti va uni o'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari	432
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
The state and development trends of business process auditing in joint-stock companies in uzbekistan.....	439
Utegenova Sarbinaz Turdimuratovna	
Mamlaktimizda amaldagi budjetlararo munosabatlarning tartibi hisobi, hamda uning ahamiyati	444
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li, Saydullayeva Zebaxon Shukrilla qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish	462
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo	
Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda so'nggi yillardagi oshib borayotgan ahamiyati	467
Bahodirova Mohigul	
Conceptual framework for boosting the financial and economic performance of investment projects in industrial enterprises.....	472
Sarriev Kahraman Ramatullaevich	



Bandlik va ayollar tadbirkorligi.....	477
Ibodullayeva M.S.	
Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ekonometrik prognozlash.....	482
A'zamov Musurmon Axmadovich, Islomov Javohir	
Eksport siyosatini tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'siri.....	488
Suvonov Ibrohim Izbosarovich, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Aholini ish bilan ta'minlashda qishloq aholisini mehnat salohiyatidan foydalanish.....	492
Noiba Qodirova Maxmud qizi	
Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda rasmiy bandlik va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish	497
Xalimbetov Farxad Bagibekovich, Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	



YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISHDA RASMIY BANDLIK VA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH

Xalimbetov Farxad Bagibekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

fxalimbetov@tsue.uz

Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

breyimberdiyev@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda rasmiy bandlikni oshirish va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot hajmi, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari hamda 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturida belgilangan maqsadlar asosida moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish yo'llari tahlil qilindi. Yashirin iqtisodiyot va rasmiy bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilib, amaliy tavsiyalar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, rasmiy bandlik, moliyaviy munosabatlar, mehnat bozori, norasmiy faoliyat, rasmiy faoliyat, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article develops proposals aimed at increasing formal employment and improving financial relations to reduce the shadow economy. It analyzes the scale of the shadow economy in Uzbekistan, its socio-economic consequences, and the ways to improve financial mechanisms based on the objectives outlined in the state program until 2025. The relationship between the shadow economy and formal employment is studied, and practical recommendations are presented.

Key words: shadow economy, formal employment, financial relations, labor market, informal activity, formal activity, economic stability.

Аннотация: В данной статье разработаны предложения по увеличению уровня официальной занятости и развитию финансовых отношений с целью сокращения теневой экономики. Проанализированы масштабы теневой экономики в нашей стране, её социально-экономические последствия, а также пути совершенствования финансовых механизмов на основе целей, обозначенных в государственной программе, рассчитанной до 2025 года. Изучена взаимосвязь между теневой экономикой и официальной занятостью, представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: теневая экономика, официальная занятость, финансовые отношения, рынок труда, неформальная деятельность, формальная деятельность, экономическая стабильность.

KIRISH

Yashirin iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning rasmiy hisobga olinmaydigan, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qochish maqsadida yashirin amalga oshiriladigan qismi hisoblanadi. Bu holat mamlakat iqtisodiyotining to'g'ri ishlashiga, davlat budjeti daromadlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yashirin iqtisodiyotning ulushi hozirgi kunda YalMning taxminan uchdan birini tashkil etadi, biroq so'nggi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada kamaymoqda¹. Bu esa davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Rasmiy bandlikni oshirish mehnat bozorining barqarorligi, ijtimoiy himoya va iqtisodiy o'sish uchun muhim omildir. Yashirin iqtisodiyotning keng tarqalganligi rasmiy bandlik darajasini pasaytiradi, natijada mehnat bozorida notekislik va ijtimoiy muammolar yuzaga keladi.

Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi mehnat bozorida rasmiy va norasmiy sektor o'rtasidagi raqobatni buzadi, chunki norasmiy sektordagi korxonalar soliqlardan qochib, xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun noqulay sharoitlar yaratadi va yangi ish o'rinlari yaratishni qiyinlashtiradi².

¹ <https://oz.sputniknews.uz/20250513/ozbekiston-yalpi-ichki-mahsulot-norasmiy-yashirin-iqtisod-49332339.html>

² <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-esearch/article/view/59098>



Shunday qilib, yashirin iqtisodiyotning keng tarqalganligi O'zbekiston mehnat bozorida notekislikni kuchaytiradi, ijtimoiy himoya tizimini zaiflashtiradi va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yashirin iqtisodiyot mehnat bozoridagi notekisliklar:

Yashirin iqtisodiyotda ishlayotgan ishchilar ko'pincha rasmiy mehnat shartnomalarisiz faoliyat yuritadi. Bu esa ularning ijtimoiy sug'urta, pensiya va boshqa ijtimoiy kafolatlardan mahrum bo'lishiga olib keladi. Natijada, norasmiy sektorda ishlovchilar orasida ijtimoiy himoya va mehnat sharoitlari bo'yicha notekislik kuchayadi.

Rasmiy va yashirin sektor o'rtasidagi farq ortadi, chunki yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalar soliqlarni to'lamaslik orqali xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa qonuniy faoliyat yuritayotgan ish beruvchilar uchun raqobatni qiyinlashtiradi va ish o'rinlari sifatining pasayishiga olib keladi.

Yashirin iqtisodiyotda ish haqi odatda past bo'ladi, mehnat sharoitlari esa rasmiy sektorga nisbatan yomonroq bo'ladi. Bu holat mehnat bozorida daromad va imkoniyatlarning notekis taqsimlanishiga sabab bo'ladi.

Yashirin iqtisodiyot davlat budjetiga soliq tushumlarini kamaytiradi. Natijada, ijtimoiy xizmatlar va mehnat bozorini tartibga soluvchi dasturlar uchun zarur mablag'lar yetishmaydi. Bu esa ijtimoiy muammolarni yanada chuqurlashtiradi.

Yashirin iqtisodiyotda mehnat qonunlari ko'pincha buziladi, bu esa ishchilar huquqlarining himoyasiz qolishiga va mehnat bozorida notekisliklarning yanada kuchayishiga olib keladi³. Shunday qilib, yashirin iqtisodiyot mehnat bozoridagi notekisliklarni kuchaytiradi, ijtimoiy himoya tizimini zaiflashtiradi, mehnat sharoitlari va daromadlarning tengsiz taqsimlanishiga olib keladi hamda iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va rasmiy bandlik darajasini oshirishga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy yondashuvlar global iqtisodiy adabiyotlarda ko'plab tadqiqotlarga asos bo'lgan. Bu borada D. Schneider va F. Enste tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yashirin iqtisodiyotning hajmi, shakllanish sabablari va uni kamaytirish strategiyalarini chuqur tahlil qiladi. Ularning fikricha, yuqori soliq yuklamasi, tartibga solishdagi murakkablik va rasmiy sektorning ishonchli institutlarga ega emasligi yashirin iqtisodiyotning kengayishiga olib keladi. Ushbu muammo bilan kurashishda fiskal yengillik, soliq tizimidagi soddalashtirish va rasmiy bandlikni rag'batlantirish muhim o'rin tutadi.

Boshqa tomondan, A. Razin va E. Sadka yashirin bandlik va byudjet siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, rasmiy bandlikni kengaytirish orqali budjet tushumlarini barqarorlashtirish mumkinligini isbotlagan. Ularning fikriga ko'ra, norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tishni rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlar – subsidiyalar, soliq imtiyozlari, arzon kreditlar – iqtisodiy tartibotga xizmat qiladi.

Kalendar Abdurahmonov (2019) o'zining "Mehnat va iqtisodiyot" nomli asarida Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ish bilan beqaror bandlik quyidagi holatlar orqali tavsiflanishini keltiradi: ish muddati bo'yicha chegaralanganligi, ish beruvchi bilan yashirin va/yoki soxta mehnat munosabatlarining mavjudligi, mehnatning beqaror shart-sharoitlari (past ish haqi, himoyalannaganlik, ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatining yo'qligi hamda o'z mehnat huquqlarini himoya qilishning murakkabligi).

Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston bo'yicha sharhlarida esa mamlakatda norasmiy sektor hajmi yuqoriligidan qolayotgani va bu holat ijtimoiy sug'urta tizimining zaiflashuviga olib kelayotgani ta'kidlangan. Ayniqsa, ILO hisobotlarida rasmiy bandlikni oshirish orqali nafaqat soliq bazasi kengayishi, balki ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Tadqiqotlarda moliyaviy munosabatlarning roliga ham alohida e'tibor qaratiladi. D. North va B. Weingastning institutsional iqtisodiy nazariyasi doirasida, moliyaviy shaffoflik va huquqiy ishonchlilik norasmiy faoliyatni rasmiy maydonga olib chiqishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ya'ni, moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyati kengaysa, iqtisodiy subyektlar rasmiylashtirilgan iqtisodiyotda faoliyat yuritishga moyil bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha samarali strategiya rasmiy bandlikni rag'batlantirish, moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish, soliq va tartibga solish tizimini soddalashtirish, shuningdek, iqtisodiy institutlarga bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu omillar tizimli yondashuv bilan uyg'unlashgandagina norasmiy sektor hajmi bosqichma-bosqich qisqaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yashirin iqtisodiyot asosan bozor iqtisodiyotiga islohotlar orqali bosqichma-bosqich o'tish jarayonida rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan. Aksincha, rivojlangan mamlakatlarda

3 https://uza.uz/oz/posts/yashirin-iqtisodiyot-tahlil-va-taklif_562168.



uning ulushi nisbatan past bo'ladi. Shu sababli yashirin iqtisodiyotning mazmuni, uning paydo bo'lish va kengayish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, shuningdek uni qisqartirish va nazorat qilish choralarini chuqur o'rganish barcha davlatlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. Yashirin iqtisodiyot va rasmiy bandlik sohasidagi dolzarb masalalar O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish asosiy ustuvor vazifa bo'lib, bu orqali davlat budjetiga qo'shimcha 20 trillion so'm soliq tushumlarini jalb etish rejalashtirilmoqda⁴. Bu esa davlat budjeti taqchilligini kamaytirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashirin iqtisodiyot, ya'ni norasmiy iqtisodiy faoliyatlar majmuasi, ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun jiddiy makroiqtisodiy va institutsional muammo hisoblanadi. Bu holat nafaqat davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga olib keladi, balki rasmiy statistik ma'lumotlarning ishonchliligiga putur yetkazadi, iqtisodiy rejalashtirishni qiyinlashtiradi va mehnat munosabatlarining ijtimoiy adolatligini izdan chiqaradi. Ushbu tahlilda yashirin iqtisodiyotning asosiy sabablari, u bilan bog'liq mehnat bozori va moliyaviy munosabatlar, rasmiy bandlikni rag'batlantirish mexanizmlari hamda davlat siyosati orqali uning hajmini kamaytirish strategiyalari tizimli ko'rib chiqiladi.

Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi ko'plab o'zaro bog'liq omillar natijasidir. Ularning boshida tartibga solishdagi murakkablik, yuqori soliq yuklamasi, ruxsatnoma va litsenziyalashdagi byurokratiya, past huquqiy madaniyat, aholi orasida rasmiy sektor institutlariga bo'lgan ishonchsizlik, ish o'rinlarining yetishmasligi va moliyaviy inklyuziya darajasining pastligi turadi. D. Schneider va D. Enste yashirin iqtisodiyotni "tartibga solish tanqisligi va davlatga bo'lgan ishonchsizlik natijasida yuzaga keladigan muqobil iqtisodiy model" sifatida ta'riflagan.

O'zbekistonda ham tarixan norasmiy iqtisodiy faoliyatlar, ayniqsa xizmat ko'rsatish, savdo, qurilish va qishloq xo'jaligida keng tarqalgan. Mehnat munosabatlarining katta qismi rasmiy ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladi. Bu holat, bir tomondan, ish beruvchilarning rasmiy xarajatlardan qochishga urinishini, ikkinchi tomondan esa mehnatkashlarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchining pastligini aks ettiradi.

Rasmiy bandlikning oshishi davlat byudjeti uchun yangi soliq tushumlarini ta'minlaydi, ijtimoiy himoya tizimining barqaror ishlashini kafolatlaydi va rasmiy statistikaning ishonchliligini oshiradi. Bundan tashqari, rasmiy mehnat munosabatlari mehnatkashlarga mehnat shartnomasiga ega bo'lish, pensiya jamg'armalariga hissa qo'shish va tibbiy sug'urta bilan ta'minlanish imkonini beradi. Bu esa ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda rasmiy bandlikni kengaytirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar norasmiy sektorni rasmiylashtirishga xizmat qildi. 2022-yilda rasmiy ish o'rinlarining umumiy bandlikdagi ulushi 52 foizga yetgani, bu esa 2018-yildagi 40 foiz bilan solishtirganda sezilarli o'sishni ko'rsatadi.

Yashirin iqtisodiyotning qisqarishida moliyaviy munosabatlar va bank tizimining roli nihoyatda muhim. Moliyaviy xizmatlarga keng kirish imkoniyati, xususan, arzon va tezkor kreditlar, mikromoliyalash, sug'urta mahsulotlari va raqamli to'lov tizimlari norasmiy subyektlarni rasmiy sektorga jalb qilishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy inklyuziya yuqori bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy agentlar rasmiylashtirilgan muomalalarni afzal ko'radi, chunki u holda kredit reytingi shakllanadi, kafolatlar kuchayadi va xavflar kamayadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya darajasi hali past bo'lib, aholining taxminan 35–40 foizi bank hisob raqamiga ega emas. Bu esa ko'pchilik uchun moliyaviy tizimdan chetda qolish, naqd pul muomalasi ustunligini saqlab qolish va shu orqali norasmiy faoliyatda davom etish imkonini yaratadi. Bu holatni o'zgartirish uchun mikromoliyaviy institutlar va raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etish, ayniqsa qishloq hududlarida, zarur.

Yashirin iqtisodiyot bilan kurashishda fiskal mexanizmlar, xususan soliq siyosati, asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Yuqori soliq stavkalari, murakkab hisobot tizimi va tartibga solishning haddan tashqari ko'pligi yashirin iqtisodiyot uchun "qochim yo'li" yaratadi. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekiston soliq tizimini soddalashtirish va progressiv soliq siyosatini joriy etishga kirishdi.

Masalan, kichik tadbirkorlar uchun yillik aylanmadan olinadigan qat'iy soliq stavkalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan hisobot tizimi, patent asosidagi faoliyatlar joriy etilishi norasmiy subyektlarni rasmiylashtirishga undaydi. Bundan tashqari, vaqtinchalik soliq imtiyozlari va davlat grantlari orqali rasmiy sektor jozibadorligi oshirilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan berilayotgan soliq rag'batlari va kredit yengilliklari norasmiy sektorda ishlayotganlarning rasmiylashtirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq bu siyosat muvozanatli va vaqtinchalik bo'lishi, u noto'g'ri foydalanishga sabab bo'lmasiligi zarur.

4 <https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/25/shadow-economy/>



Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda eng kuchli vositaga aylanmoqda. Jumladan, soliq organlarining onlayn nazorat tizimlari, kassa apparatlari, elektron hisob-fakturalar, banklar bilan to'g'ridan-to'g'ri integratsiya va fuqarolar uchun mobil ilovalar orqali davlat xizmatlarining mavjudligi — bular yashirin muomalalarni aniqlash va ularni kamaytirishda sezilarli natijalar bermoqda.

O'zbekistonda "Soliq-servis" ilovasi, "Soliq kodini bilaman" loyihasi va elektron fiskal tizimlar ushbu yo'nalishda salmoqli yutuqlar qatoriga kiradi. Biroq bu tizimlarning muvaffaqiyati aholining raqamli savodxonligi va texnik infratuzilmaning mavjudligiga bog'liq.

Yashirin iqtisodiyot hajmi hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bir xil emas. Qishloq xo'jaligi, chakana savdo, xizmat ko'rsatish va qurilish sohalarida norasmiy faoliyat keng tarqalgan. Ayniqsa, qishloq joylarda bandlikning katta qismi norasmiy shaklda amalga oshiriladi. Bu yerda rasmiylashtirish uchun zarur infratuzilmaning yo'qligi, mehnat migratsiyasi va naqd pul ustuvorligi muammo sifatida ajralib turadi.

Shuningdek, ayollar va yoshlar orasida norasmiy bandlik yuqoriligi kuzatiladi. Shu sababli gender va yosh nuqtayi nazardan individual yondashuv asosida maqsadli dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Masalan, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi kredit liniyalari, yoshlar uchun ishbilarmonlik treninglari, ularni rasmiy sektorga jalb qilishda muhim vositaga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va rasmiy bandlikni oshirish maqsadida ma'lum bir davrga mo'ljallangan tajriba-sinov asosida quyidagi moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Soddalashtirilgan soliq siyosati va soliq imtiyozlarini joriy etish bo'yicha aholining keng xabardorligini ta'minlash. Bu omil aholining rasmiy faoliyat yuritishga bo'lgan ishonchini oshiradi. Natijada:

Norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan shaxslar soliq tizimiga o'tishga undaladi;

Tadbirkorlar qonuniy yengilliklardan foydalanishga intiladi;

Yashirin iqtisodiyot hajmi kamayadi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun soliqlarni kamaytirish yoki vaqtincha bekor qilish orqali ularni rasmiylashtirish jarayoniga rag'batlantirish mumkin.

Moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish. Rasmiy bandlikni oshirish maqsadida kreditlar, subsidiyalar, grantlar va boshqa moliyaviy yordam turlarini ko'paytirish muhimdir. Bu iqtisodiyotni sog'lomlashtirish hamda yashirin sektorni legallashtirish uchun samarali moliyaviy vositadir.

Moliyaviy nazorat va audit tizimini raqamlashtirish. Ushbu yondashuv soliq nazorati samaradorligini oshiradi, soliq tushumlari yig'ilishini soddalashtiradi va korrupsiyani kamaytiradi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanishni yengillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash samaradorligini kuchaytirish mumkin.

Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish. Rasmiy bandlikni jozibador qilish uchun ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlash muhimdir. Bu, o'z navbatida, ishchi kuchining huquqiy va iqtisodiy jihatdan himoyalanganligini ta'minlaydi.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish jarayonida rasmiy bandlikni kengaytirish va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturida ushbu yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilsa, yashirin iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada qisqaradi, rasmiy bandlik esa ortadi. Bu esa mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi va iqtisodiyotni sog'lom rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Schneider F., Enste D. H. Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences. Journal of Economic Literature, 2000.
2. Razin A., Sadka E. Labor, Capital, and Fiscal Policy in a Global Economy. Cambridge University Press, 1999.
3. North D. C., Weingast B. R. Constitutions and Commitment: The Evolution of Institutions Governing Public Choice in Seventeenth-Century England. Journal of Economic History, 1989.
4. Asqarova M., Jo'raev T. Norasmiy bandlikni rasmiylashtirishda davlat dasturlarining o'rni, Iqtisodiyot va ta'lim, Toshkent, 2021.
5. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum, 2022.
6. International Labour Organization (ILO). Decent Work Country Programme – Uzbekistan, 2020.
7. Kalandar Abdurahmonov "Mehnat iqtisodiyoti" Toshkent -2019
8. <https://president.uz/oz/lists/view/3740>
9. <https://oz.sputniknews.uz/20250513/ozbekiston-ypki-ichki-mahsulot-norasmiy-yashirin-iqtisod-49332339.html>
10. <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/59098>
11. https://uza.uz/oz/posts/yashirin-iqtisodiyot-tahlil-va-taklif_562168
12. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/25/shadow-economy/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
